



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

“BOBURNOMA”DAGI LAKUNALAR: LEMMA-VARIANT-STRATEGIYA MODELII ASOSIDA

G‘aybullayev Erkinjon

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadqiqot materiali sifatida “Boburnom”ning Farg‘ona voqealariga oid tanishuv parchasi (Bobur 2018: 6–8-betlar) tanlandi; lakunar birliklar kontekstda “bir so‘zli tayyor ekvivalentning mavjud emasligi” va “madaniy-semantik komponentning izoh talab qilishi” mezonlari asosida ajratib olindi. Tadqiqotda lakunalar madaniy-toponimik nomlar, tarixiy o‘lchov birliklari, gastronomik realiyalar, mahalliy nominatsiyalar hamda flora/material realiyalari qatlamida tahlil qilinadi. Qiyosiy va kontekstual-semantik tahlil natijasida “yig‘och”, “shar‘iy”, “Masjidi Javzo”, “donakalon”, “subhoniyy”, “tobulg‘u” kabi birliklar ingliz tilida tayyor ekvivalentga ega emasligi, ularni tarjimada asosan transliteratsiya + izoh (gloss) va tavsifiy tarjima orqali adekvat yetkazish mumkinligi asoslanadi. Beveridge (1922) tarjimasida lakunar birliklarni izoh bilan berish samarali ekanligi, biroq ayrim birliklarda imlo-transliteratsiya variantlari (masalan, yighdch/ylghdch) termin bazasida dublikat muammosini keltirib chiqarishi ko‘rsatiladi. Maqolada lakunar birliklarni standartlashtirish, “lemma–variant–strategiya” modeli asosida bazaga kiritish hamda kontekstga tayangan tarjima tamoyillarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, lakunar birlik, o‘zbek–ingliz tarjima, realiya, transliteratsiya, gloss (izoh), lingvokulturologiya..

ЛАКУНЫ В «БАБУР-НАМЕ»: НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «ЛЕММА–ВАРИАНТ–СТРАТЕГИЯ»

Гайбуллаев Эркинжон

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы,
преподаватель

Аннотация

В статье в качестве материала исследования используется фрагмент «Бабур-наме», посвящённый событиям в Фергане (Бабур, 2018: с. 6–8), на основе которого лакунарные единицы выделяются по критериям отсутствия готового эквивалента и необходимости пояснения культурно-семантического компонента. Лакуны анализируются в контексте культурно-топонимических названий, исторических единиц измерения, гастрономических реалий, локальных номинаций, а также реалий флоры и материальной культуры. В результате сравнительно-контекстуального анализа установлено, что такие единицы, как «yig‘och», «shar‘iy», «Masjidi Javzo», «donakalon», «subhoniyy», «tobulg‘u», не имеют готовых эквивалентов в английском языке и могут адекватно передаваться посредством transliteratsii с пояснением (глоссой) и описательного перевода. Отмечается эффективность подхода Беверидж (1922), использующего пояснительный перевод, однако разнообразие орфографических вариантов может приводить к терминологическим дубликатам. В статье предлагаются практические рекомендации по стандартизации лакунарных единиц и их систематизации на основе модели «лемма–вариант–стратегия» с опорой на контекстный перевод.

Ключевые слова: «Бабур-наме», лакунарная единица, узбекско-английский перевод, реалия, transliteratsiya, glossa, lingvokulturologiya.

LACUNAE IN THE “BABURNAMA”: BASED ON THE LEMMA-VARIANT-STRATEGY MODEL

G‘aybullayev Erkinjon

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Lecturer

Abstract

This article uses a fragment of the “Baburnama” related to events in Fergana (Babur, 2018: pp. 6–8) as research material, identifying lacunar units based on the absence of ready equivalents and the need to explain cultural-semantic components. The study analyzes lacunae within cultural-toponymic names, historical measurement units, gastronomic realia, local nominations, and flora/material culture domains. Comparative and contextual-semantic analysis reveals that units such as “yig‘och,” “shar‘iy,” “Masjidi Javzo,” “donakalon,” “subhoniyy,” and “tobulg‘u” lack direct English equivalents and are best rendered through transliteration with glosses and descriptive translation. The translation by Beveridge (1922) is noted for its effectiveness in using explanatory strategies, although variation in transliteration may lead to terminological duplication. The article offers practical recommendations for standardizing lacunar units and systematizing them using the “lemma-variant-strategy” model with a context-based translation approach.

Keywords: “Baburnama”, lacunar unit, Uzbek–English translation, realia, transliteration, gloss, linguoculturology.

Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan boy adabiy-ilmiiy meros ichida “Boburnoma” alohida mavqega ega bo‘lib, asar nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki til, madaniyat, etnografiya, geografiya va ijtimoiy munosabatlar haqidagi ko‘p tarmoqli ma‘lumotlarni jamlagan kompleks manba sifatida qadrlanadi. Ushbu yodgorlik tilidagi leksik birliklar, realiyalar, tarixiy-lavozim atamaları, urf-odat va marosim nomlari, ijtimoiy mavqe va munosabatni bildiruvchi ifodalar o‘z davri tafakkuri hamda Sharq madaniy muhitining muhim “kodlari”ni saqlagan. Shuning uchun “Boburnoma” matnini boshqa tillarga, ayniqsa ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni oddiy “mazmun ko‘chirish” emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va milliy ma‘no qatlamlarini adekvat uzatish bilan bog‘liq murakkab ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida strukturalanmagan matnli axborot hajmi tez ortmoqda; shu bois axborot qidirish, filtrlash va semantik qayta ishlash jarayonlarini lingvistik modellar orqali tizimlashtirish dolzarbdir [Abjalova, 2021]. Zamonaviy tarjimashunoslikda bunday murakkablikning markazida lakunar birliklar (ya‘ni ma‘lum til va madaniyatda mavjud bo‘lib, boshqa til tizimida tayyor, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili topilmaydigan birliklar) turadi. Shu nuqtai nazardan, lakunar birliklarni aniqlash va ularni tarjimada adekvat modellashtirish masalasi zamonaviy korpus lingvistikasi hamda avtomatik tilni qayta ishlash texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq. Lakunalarning korpus asosida tahlil qilinishi lemmatizatsiya va stemming jarayonlarining aniqligini talab etadi, chunki bu texnologiyalar turli shakldagi birliklarni yagona lemma doirasida jamlash imkonini beradi. Abjalova va hammualliflar ta‘kidlaganidek, bunday yondashuv korpusda semantik izchillikni ta‘minlab, lakunar birliklarni tarjimada transliteratsiya + izoh (gloss) va tavsifiy strategiyalar orqali adekvat yetkazish uchun metodologik asos yaratadi [Abjalova va boshq., 2024]. Lakunar birliklar faqat “nom” emas: ularning ichida tarixiy tajriba, ijtimoiy tuzum, mentalitet, qadriyat va kommunikativ odatlar mujassam bo‘ladi. Qadimgi o‘zbek matnlaridagi madaniy-semantik yuklamaga ega birliklarning lingvokulturologik tahlili Xolmanova tadqiqotlarida yoritilgan bo‘lib, muallif bunday birliklarning milliy dunyoqarash va ijtimoiy-madaniy munosabatlarni ifodalashdagi rolini ko‘rsatadi [Xolmanova, 2021]. Ushbu yondashuv “Boburnoma”dagi lakunar birliklarni aniqlash va ularni tarjimada izohga tayangan holda modellashtirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bois ular tarjimada ko‘pincha quyidagi

muammolarni keltirib chiqaradi:

1. semantik yo‘qotish (ma‘no qisqarishi yoki soddalashishi),
2. pragmatik siljish (muallifning niyati, ohang va baho komponenti o‘zgarishi),
3. madaniy koloritning susayishi (milliy obraz va muhit “neytrallashib” qolishi),
4. noto‘g‘ri talqin (o‘quvchida boshqa madaniyat stereotipiga mos, lekin asl mazmundan chetga chiqadigan tushuncha paydo bo‘lishi),
5. terminologik nomuvofiqlik (lavozim, ijtimoiy qatlam, harbiy-siyosiy institut nomlarini moslashtirishdagi xatolar).

“Boburnoma”dagi lakunar birliklar, ayniqsa, quyidagi qatlamlarda faol uchraydi:

- tarixiy-siyosiy realiyalar (davlatchilik va boshqaruvga oid tushunchalar),
- harbiy-boshqaruv leksikasi (qo‘shin tuzilishi, unvon, safar va harakat atamaları),
- etnografik birliklar (urug‘-qabila nomlari, kiyim-kechak, taom, marosim),
- toponim va antroponimik birliklar (tarixiy joy nomlari va shaxs nomlari fonetik/semantik yuklama bilan),
- muloqot odobi va muomala birliklari (hurmat, ijtimoiy masofa, nutqiy etiketa unsurlari).

Bu birliklar o‘zbek tilida tabiiy va tushunarli bo‘lsa-da, ingliz tilida ko‘pincha tayyor ekvivalent bermaydi; natijada tarjimon strategiya tanlash zaruriyatiga duch keladi. Tarjima amaliyotida lakunar birliklar uchun, odatda, transkripsiya/transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional muqobillik, generalizatsiya, konkretlashtirish, izoh (footnote/gloss) berish, madaniy moslashtirish kabi yo‘llar qo‘llanadi. Biroq bu usullar o‘rtasida doimiy qarama-qarshilik mavjud: bir tomondan, asarning milliy-madaniy “ruhi”ni saqlash; ikkinchi tomondan esa ingliz o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lishini ta‘minlash. Aynan shu nuqtada tarjima “mukammal muvozanat” talab qiladigan ilmiy muammoga aylanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, “Boburnoma” tarjimalarida lakunar birliklar qanday berilgani, bu berilish darajasi semantik va pragmatik jihatdan qanchalik adekvat ekani hamda qaysi holatlarda ma‘no yo‘qotish yoki madaniy siljish yuzaga kelgani masalasi hali ham izchil tizimlashtirilgan, amaliy tavsiyalar darajasida umumlashtirilgan holda yetarli yoritilishga muhtoj. Ayniqsa, o‘zbek–ingliz tarjima yo‘nalishida lakunarlikni aniqlash mezonlari, tahlil parametrlari va optimal strategiya tanlash tamoyillarini “Boburnoma” materiali asosida ko‘rsatish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. “Boburnoma” leksikasini tizimli o‘rganishda so‘nggi yillarda yaratilgan “Bobur asarlari lug‘ati” (Xolmanova, Hayitov, Muhammadiyeva, 2025) muhim manba hisoblanadi. Mazkur lug‘atda Bobur asarlarida uchraydigan tarixiy, madaniy va realiyaga oid birliklar izohli tarzda jamlangan bo‘lib, ularni lakunar birlik sifatida aniqlash va tarjimada izohga tayangan modellashtirish uchun mustahkam leksik asos yaratadi.

Metodologiya: Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontekstual-semantik tahlil, pragmatik talqin, tarjima transformatsiyalari va lingvokulturologik yondashuv usullaridan foydalaniladi. Bu yondashuvlar lakunar birlikni faqat “so‘z” sifatida emas, balki madaniy ma‘no tashuvchi birlik sifatida tekshirish imkonini beradi.

“Boburnoma” tarjimalari: ko‘p tillilik va lakunar birliklar muammosi

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” jahon adabiy-madaniy merosida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan asarlardan biri hisoblanadi. Asarning tarixiy, adabiy va lingvistik ahamiyati tufayli u XVI asrdan boshlab turli xalqlar va madaniyatlar e‘tiborini tortib kelgan hamda bugungi kunga qadar taxminan yigirma beshga yaqin tilga tarjima qilingan. Bu holat “Boburnoma”ning global miqyosdagi qabul qilinishini ko‘rsatsa-da, ayni paytda asarning tarjimasida yuzaga keladigan lakunar birliklar muammosini ham keskinlashtiradi. “Boburnoma”ning tarjima tarixi, avvalo, Sharq madaniy hududi bilan bog‘liq. Asarning ilk yirik tarjimalaridan biri XVI asr oxirida Boburiylar saroyida amalga oshirilgan bo‘lib, u klassik fors tiliga Abdul Rahim Xon-i-Xonon tomonidan tarjima qilingan. Ushbu tarjima siyosiy-ma‘rifiy

ehtiyojlardan kelib chiqqan bo'lsa-da, asar mazmunining forsiy madaniy makonga moslashtirilishi natijasida ayrim turkiy realiyalar va milliy-madaniy birliklarning semantik yuklamasi qisman o'zgartirildi. Bu esa keyingi Yevropa tarjimalariga ham bilvosita ta'sir ko'rsatgan.

Yevropa tillariga tarjima qilish jarayoni XIX asr boshlarida boshlangan. Ingliz tilidagi dastlabki mashhur tarjima John Leyden va William Erskine tomonidan 1826-yilda amalga oshirilgan bo'lib, u asosan forsiy nusxaga tayangan. Mazkur tarjima G'arb ilmiy jamoatchiligiga Bobur shaxsiyati va merosini tanitishda muhim rol o'ynagan, biroq unda turkiy tilga xos lakunar birliklar ko'pincha umumlashtirish yoki izohsiz moslashtirish yo'li bilan berilgan. Natijada milliy koloritning ma'lum darajada yo'qotilgani seziladi.

Lakunar birliklarni imkon qadar asl manba asosida yetkazishga bo'lgan ilk jiddiy urinish XX asr boshlariga to'g'ri keladi. 1922-yilda Annette Susannah Beveridge tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjima bevosita chig'atoy (eski o'zbek) matniga tayangani bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu tarjimada tarjimon ko'plab tarixiy, etnografik va ijtimoiy realiyalarni transkripsiya, izoh va sharhlar orqali yetkazishga intilgan. Shunga qaramay, ingliz tilining konseptual tizimi bilan bog'liq cheklovlar sabab ayrim lakunar birliklar to'liq ekvivalent topmagan holda tavsifiy yo'l bilan berilgan.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida "Boburnoma" tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yangi bosqichga ko'tarildi. 1996-yilda (keyinchalik 2002-yilda qayta tahrirlangan holda) Wheeler M. Thackston tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjima zamonaviy filologik talablar asosida tayyorlangan bo'lib, unda lakunar birliklarni madaniy kontekstda tushuntirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tarjima ko'pincha eng aniq va ilmiy asoslangan variantlardan biri sifatida baholanadi, biroq unda ham ayrim milliy tushunchalar ingliz o'quvchisi uchun soddalashtirilgan holda berilgani kuzatiladi.

"Boburnoma" rus, fransuz, nemis, turk, urdu, arab, italyan, ispan va boshqa tillarga ham tarjima qilingan bo'lib, har bir tarjima muayyan davrning ilmiy yondashuvi, madaniy ehtiyoji va tarjimonning strategik tanlovlarini aks ettiradi. Aynan shu jihat tarjimalarda lakunar birliklarning turlicha talqin qilinishiga olib keladi. Ba'zi hollarda ular milliy rang-baranglikni saqlagan holda izoh bilan berilsa, ayrim tarjimalarda esa funksional muqobil yoki umumiy tushuncha bilan almashtiriladi.

"Boburnoma"ning ingliz tilidagi tarjimalari ichida Annette Susannah Beveridge tomonidan amalga oshirilgan nashr alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, u bugungi kunda ham filologik va tarjimashunoslik tadqiqotlarida asosiy tayanch manba sifatida keng qo'llaniladi. Mazkur tarjimaning ustun jihati shundaki, u avvalgi ko'plab inglizcha tarjimalardan farqli o'laroq, bevosita asl turkiy (chig'atoy) matnga tayangan holda amalga oshirilgan.

XIX asr va XX asr boshlarida yaratilgan inglizcha tarjimalarning katta qismi, jumladan John Leyden va William Erskine tarjimalari, asosan fors tilidagi vositachi nusxalar orqali tayyorlangan. Bunday yondashuv esa tarjima jarayonida ikki bosqichli semantik siljishga olib kelgan: birinchidan, turkiy madaniy muhit forsiy madaniy andozalar orqali talqin qilingan; ikkinchidan esa ushbu forsiy talqin ingliz tiliga ko'chirilgan. Natijada "Boburnoma" matnidagi ko'plab milliy-madaniy realiyalar va lakunar birliklar o'zining asl semantik va pragmatik yuklamasini qisman yo'qotgan. Annette Susannah Beveridge tarjimasining asosiy ustunligi shundaki, u Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma"ni to'g'ridan-to'g'ri turkiy matndan ingliz tiliga o'g'irgan birinchi mukammal ilmiy tarjima hisoblanadi. Tarjimon uzoq yillar davomida asarning qo'lyozma nusxalarini o'rganib, ularni qiyoslagan, qo'shimcha ravishda "Boburnoma" qo'lyozmalari haqidagi maxsus tadqiqotlar (Notes on the MSS. of the Babur-nama) olib borgan. Bu holat tarjimaning matnshunoslik asoslari mustahkam ekanini ko'rsatadi.

Tarjima 1912–1921-yillar oralig'ida bosqichma-bosqich (Farghana, Kabul, Hindustan) shakllantirilgan va 1922-yilda yakuniy jild sifatida nashr etilgan. Ushbu uzoq tayyorgarlik jarayoni Beveridge tarjimasida izchillik, terminologik aniqlik va izohlarning boyligini ta'minlagan. Ayniqsa, lakunar birliklar tarjimasida tarjimon ko'pincha ularni to'g'ridan to'g'ri

almashtirishdan ko‘ra, transkripsiya + izoh strategiyasini tanlaydi. Bu esa milliy-madaniy ma‘no qatlamining saqlanishiga xizmat qiladi. Mazkur jihat “Boburnoma”dagi lakunar birliklarni o‘rganish uchun Beveridge tarjimasini nihoyatda qulay manbaga aylantiradi. Chunki tarjimon tomonidan berilgan izohlar, sharhlar va tushuntirishlar lakunar birliklarning ingliz tilidagi qabul qilinish mexanizmini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, Annette S. Beveridge nafaqat “Boburnoma” tarjimoni, balki Boburiylar davri manbalari bo‘yicha yirik mutaxassis sifatida ham tanilgan. Uning “Humayun-nama”, “Akbar-nama” va boshqa sharqiy manbalar ustidagi ishlari tarjimada tarixiy-siyosiy kontekstni chuqur hisobga olishga imkon bergan. Shu sababli uning tarjimasida lavozim nomlari, ijtimoiy tuzumga oid birliklar va tarixiy realiyalar tasodifiy emas, balki muallif davri ruhiga mos tarzda talqin qilingan.

Natija va muhokama

“Boburnoma”ning Farg‘ona voqealari bayon qilingan tanishuv qismida muallif geografik makonni tasvirlashda masofani zamonaviy metrik birliklar bilan emas, balki o‘sha davr va hududga xos bo‘lgan an‘anaviy o‘lchov birligi — “yig‘och” orqali belgilaydi. Bu holat matnda masofa haqidagi axborotni berishda “yig‘och”ning kommunikativ vazifasi kuchli ekanini, biroq u boshqa tilga ko‘chirilganda ekvivalent masalasi yuzaga kelishini ko‘rsatadi.

Birinchi navbatda, Bobur O‘sh kasabasini ta‘riflar ekan, uning joylashuvini Andijonga nisbatan masofa bilan belgilaydi: “Yana bir O‘sh kasabasidir... Andijondin to‘rt yig‘och yo‘ldur.” [Bobur Z.M: 7-sahifa]. Shu uslub keyingi tasvirlarda ham izchil davom etadi. Masalan, Marg‘inon haqida: “Yana bir Marg‘inondur... Andijondin yetti yig‘och yo‘ldur.” [Bobur Z.M: 8-sahifa]. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, “yig‘och” matnda oddiy “masofa”ni bildirishdan tashqari, tarixiy-geografik tasvirning milliy-madaniy o‘lchov kodini ham beradi. Aynan shu jihat “yig‘och”ni lakunar birlik sifatida ko‘rsatadi: zamonaviy ingliz tilida u “km” yoki “mile” kabi bir dona barqaror, to‘liq mos ekvivalent bilan yopilmaydi. Chunki “yig‘och”ning real qiymati (qancha km/mile ekani) ko‘pincha davr, yo‘l sharoiti va manbaga (nashr/izohlar apparatiga) bog‘liq talqinni talab qiladi. Demak, tarjimada “yig‘och”ni shunchaki “miles” deb almashtirish madaniy-terminologik qatlamni yo‘qotadi, faqat transliteratsiya qilib qo‘yish esa o‘quvchiga tushunarsiz bo‘lib qoladi.

Boburnomaning ingliz tilidagi nashrda (Beveridge) “yig‘och” odatda transliteratsiya + qavs ichida taxminiy mil shaklida beriladi. Masalan, bir epizodda masofa “yig‘och” orqali berilib, qavs ichida “mile” bilan izohlangan: “...3 yig‘hdch (12–18 m)” [Beveridge A.S. 291:sahifa]. Bu yondashuv ilmiy matn uchun amaliy jihatdan qulay: u bir tomondan lakunani (terminni) saqlaydi, ikkinchi tomondan o‘quvchiga taxminiy qiymatni anglashga imkon beradi. Biroq ayni tarjimada “yig‘och”ning transliteratsiyasi doim ham bir xil emasligi ko‘zga tashlanadi: boshqa joyda u “ylghdch” ko‘rinishida uchraydi (bir birlik — ikki yozuv varianti). Masalan: “...It lies ylghdch...” [Beveridge 1922: p.] bu holat terminni bazaga kiritishda dublikat va qidiruv muammosini keltirib chiqaradi.

Ya‘ni tarjima “mazmunni” to‘g‘ri berayotgan bo‘lsa ham, transliteratsiya variantlarining almashib kelishi lakunar birliklar bazasi uchun texnik jihatdan muhim muammo hisoblanadi. O‘zbek–ingliz lakunar nuqtayi nazaridan “yig‘och” bo‘yicha quyidagi prinsip eng ishonchli yechim bo‘ladi:

1. Lemmani standartlash (bitta asosiy ko‘rinish): yig‘och
2. Tarjima matnlaridagi yozuv variantlarini alohida “variant” maydoniga kiritish: yig‘hdch / ylghdch
3. Tarjima strategiyasini qat‘iy belgilash: Borrowing + Gloss (transliteratsiya + izoh)
4. Bazaviy inglizcha berish (tavsiya ko‘rinish): yig‘och (traditional distance unit; approx. miles—see edition notes)

“Boburnoma”da makon tasviri faqat geografik koordinata yoki masofa bilan cheklanmaydi; u ko‘pincha muallif ko‘zi bilan ko‘rilgan muayyan madaniy obyektlar orqali jonlanadi. Shunday obyektlardan biri — Baroko‘h etagida joylashgan masjid bo‘lib, Bobur uni

aniq nomi bilan tilga oladi va shu nomning o‘zi matnda lakunar qatlamni yuzaga chiqaradi. Bobur O‘sh kasabasining tabiati va havosi haqida ketma-ket tasvir berar ekan, Baroko‘h domanasida shahar bilan tog‘ orasida masjid borligini bildiradi: “Baroko‘h tog‘i domanasida shahar bila tog‘ning orasida bir masjid tushubtur, Masjidi Javzo otliq” [Bobur Z.M: 6-sahifa].

Muallif bu joyni oddiy “bino” sifatida emas, balki funksional makon sifatida ham ochadi: masjidning tashqi sahni, soya-salqin maydoni va musofirlar kelib dam olishi ta’kidlanadi: “Ushbu masjidning tashqari sahni... pурсoya, safoliq maydon... Har musofir va rahguzar kelsa, anda istirohat qilur.” [Bobur Z.M: 6-sahifa]

Lakunalik sababi shundaki, “Masjidi Javzo” — atoqli ot (proper name) bo‘lib, ingliz tilida tayyor “bir so‘zli ekvivalent”ga ega emas. Bundan tashqari, u faqat “mosque” emas: parchada u musofirlar uchun istirohat maskani, ma’lum darajada “yo‘lbo‘yi madaniy nuqta” sifatida ham talqin qilinadi. Shuning uchun tarjimada nomni shunchaki “a mosque”ga almashtirib yuborish obyektidagi mahalliy rangni pasaytiradi.

□ Masjid-i Javzo (a local mosque and a resting place for travellers)

Agar ingliz tarjimalarda nom turlicha yozilsa (masalan, Javzo/Jawza kabi), lakunar bazada bitta standart lemma tanlanib, qolganlari “variant” sifatida qayd etilishi kerak. Bu yondashuv nomni ham saqlaydi, o‘quvchi uchun funksiyasini ham ochadi. “Boburnoma”ning o‘sha parchasi tilshunoslik nuqtayi nazaridan yana bir muhim qatlamni ko‘rsatadi: Bobur ayrim joylarda makonni mahsulotlari orqali tavsiflaydi. Bu tasvirlarda ko‘pincha umumiy “meva” emas, balki mahalliy nav nomlari uchraydi. “Donakalon” shunday nominatsiya bo‘lib, u ingliz tiliga ko‘chirishda lakunar muammo tug‘diradi. Marg‘inon haqida gap ketganda Bobur uning ne‘mati sifatida anor va o‘rikni alohida ta’kidlaydi, so‘ng anorning muayyan navini nomlaydi: “Bir jins anor bo‘lur, «donakalon» derlar...” [Bobur Z.M: 7-sahifa]

Mazkur jumlada “donakalon” oddiy “pomegranate” emas, balki nav (variety) bo‘lib, u bilan birga muallif uning ta’mi haqida ham izoh beradi.

Ingliz tilida “pomegranate” umumiy nom, ammo “donakalon” mahalliy seleksiya va madaniy tajriba natijasi bo‘lgan maxsus nomdir. So‘zning ichki tuzilishi ma’no bilan bevosita bog‘langan: “dona” + “kalon” komponentlari yirik urug‘li navni anglatadi. Shu sabab bu birlikni oddiy “sweet pomegranate” deb soddalashtirish ilmiy aniqlikni pasaytiradi.

Ilmiy uslubda eng to‘g‘ri yo‘l — nomni saqlash + qisqa izoh: -donakalon (a local variety of pomegranate; lit. “large-seeded”). Bu yerda “lit.” (literal) ko‘rsatkichini berish lakunar bazada semantik izohni standartlashtiradi va keyinchalik korpus/baza qidiruvini osonlashtiradi. Lakunar birliklar ichida ayniqsa tarjimada “yo‘qolib ketish” xavfi yuqori bo‘ladigan qatlam — bu maishiy va gastronomik realiyalardir. “Subhoniyy” shunday birlik bo‘lib, u oddiy “dried apricot” bilan yopilmaydi, chunki matnda mahsulotning tayyorlanish texnologiyasi berilgan. Bobur Marg‘inondagi o‘rikni tasvirlar ekan, o‘rikning bir turi qanday tayyorlanishini amaliy usulda izohlaydi: “Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘z solib quruturlar, «subhoniyy» derlar...” [Bobur Z.M: 8-sahifa]. Lakunalik sababi: ingliz tilida “dried apricot” juda umumiy; bu parchada esa “subhoniyy”ni “subhoniyy” qiladigan narsa — danagini olib, ichiga mag‘z solib quritish jarayoni. Demak, mazkur birlikning ma’nosi leksik ekvivalent orqali emas, balki tayyorlash texnologiyasi orqali ochiladi.

Tarjima yechimi: eng maqbul yo‘l — nomni saqlash + deskriptiv izoh:

— subhoniyy (dried apricot prepared by removing the pit and inserting a kernel/nut; a local delicacy)

Bu model “realiya”ni yo‘qotmasdan, o‘quvchi uchun ma’noni to‘liq ochadi va bazada “gastro-realiya” tegini qo‘yishga imkon beradi.

“Boburnoma”dagi ayrim birliklar shaklan diniy-huquqiy mazmunga o‘xshab ko‘rinsa-da, kontekstda butunlay boshqa — masofa/joylashuv funksiyasini bajaradi. “Shar’iy” shunday birlik bo‘lib, noto‘g‘ri tarjima qilinsa, matn mazmuni keskin buziladi. Aysi tasvirida Bobur qo‘rg‘on va mahallot orasidagi uzoqlikni shunday beradi: “Mahalloti qo‘rg‘ondin bir shar’iy yiroqroq

tushubtur.” [Bobur Z.M: 8-sahifa] Jumlaning sintaksisi va mazmuniy yo‘nalishi bu yerda “shar’iy”ning “legal/religious” emas, aynan masofa bildiruvchi birlik sifatida kelayotganini ko‘rsatadi: gap joylashuvni o‘lchayapti, ta’rif berayapti. Beveridge (1922) tarjimasida bu birlik transliteratsiya qilinib, masofa kontekstida beriladi: “(2–3 shar’t)” [Beveridge A.S. 291-sahifa]

Bu tur birliklarda eng xavfli xato — “shar’iy”ni avtomatik ravishda “religious/legal” deb tarjima qilish. Bunday yondashuv kontekstni buzadi, chunki bu yerda “shar’iy” — distance/spacing funksiyasida. Shuning uchun lakunar bazada “shar’iy” albatta kontekstli teg bilan belgilanishi kerak: (distance/spacing measure).

Tarjima yechimi:

□ one shar’iy (a traditional measure used for distance/spacing; standardization needed)

□ Beveridge (1922) dagi shar’t ko‘rinishi esa bazada “variant” sifatida beriladi.

Bobur ayrim realiyalarni shunchaki sanab o‘tmaydi; u ularni tasvirlab, xususiyatini va amaliy qo‘llanishini ko‘rsatadi. “Tobulg‘u yig‘ochi” shunday misol bo‘lib, u nafaqat “wood” (yog‘och), balki mahalliy flora va unga bog‘liq madaniy-amaliy foydalanish majmuasini ifodalaydi. Koson atrofidagi tog‘lar va yayloqlar haqida gap ketganda, Bobur tobulg‘u yog‘ochining faqat shu tog‘larda bo‘lishini, po‘sti qizilligini va undan nima yasalishini ketma-ket bayon qiladi: “Tobulg‘u yig‘ochi bu tog‘larda bo‘lur, o‘zga hech yerda bo‘lmas. Tobulg‘u bir yig‘ochedur, po‘sti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar... heyli yaxshi yig‘ochdur.” [Bobur Z.M: 8-sahifa] Lakunalik sababi: inglizchada “wood” umumiy; biroq bu parchada “tobulg‘u”ning mazmuni uch qavatli semantic tuzilmadan iborat:

1. daraxt/yog‘och turi (tobulg‘u),
2. ajratib turuvchi belgi (po‘sti qizil),
3. madaniy mahsulotlar (aso, qamchi dastasi, qafas va boshqalar).

Demak, “tobulg‘u”ni oddiy “red wood” yoki “a kind of tree” deb qisqartirish realiyaning madaniy funksiyasini yo‘qotadi.

Tarjima yechimi:

□ tobulg‘u wood (a local mountain wood; red bark; used for walking sticks, whip handles, bird cages). Bu model realiyani “nom” + “funksiya” orqali aniq ochadi va bazada flora/material realiya sifatida teg qo‘yishga imkon beradi.

Beveridge (1922) matnida “yig‘och”ning transliteratsiyasi ba‘zan turlicha yoziladi. Masalan, bir joyda “yighdch” shakli uchraydi: “(2–1 ... yighdch south of Kabul)” [Beveridge A.S. 290:sahifa] Boshqa joyda esa u “ylghdch” ko‘rinishida keladi: “Bukhara, 25 ylghdch to the west.” [Beveridge A.S. 153:sahifa] Mazkur holatni bevosita “tarjima xatosi” sifatida baholashdan ko‘ra, uni transliteratsiya yoki imlo varianti sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir. Biroq lakunar birliklar bazasini shakllantirish jarayonida bunday farqlar prinsipial ahamiyat kasb etadi, chunki qidiruv va tasnifda takror (dublikat) birliklarning oldini olish uchun lemma darajasida standartlash hamda alohida “variant spelling” maydonini joriy etish zarur.

Beveridge (1922) tarjimasida ayrim masofa birliklari qavs ichida inglizcha o‘lchov bilan izohlanadi. Jumladan, “4 to 6 miles (2–3 shar’t)” shaklidagi berilish lakunani saqlagan holda o‘quvchi uchun semantik tushunish imkonini yaratadi. Mazkur yondashuvni tarjima strategiyalari nuqtai nazaridan Borrowing + Comment (gloss) modeli sifatida tavsiflash mumkin.

XULOSA

1. “Boburnoma” tanishuv parchalarida lakunalar asosan masofa/o‘lchov (yig‘och, shar’iy), madaniy obyekt nomlari (Masjidi Javzo), mahalliy nav nomlari (donakalon, subhoniyy) va flora/material realiyalari (tobulg‘u) qatlamida jamlangan.

2. Lakunar birliklar ingliz tiliga “bir so‘z = bir so‘z” tarzida to‘liq ko‘chmaydi; eng to‘g‘ri yechim — transliteratsiya + izoh (gloss) va zarur joyda deskriptiv tarjima.

3. The Babur-nama in English (Beveridge, 1922) tarjimasida “yig‘och” kabi birliklarda imlo variantlari (yighdch/ylghdch) uchrashi termin bazasidaublikat keltirishi

mumkin; shu sabab bazada lemma standartlash va “variant spelling” maydoni shart.

4. “shar’iy” kabi birliklarda eng katta xavf — uni “religious/legal” deb noto‘g‘ri talqin qilish; kontekstda u masofa/spacing o‘lchovi sifatida belgilanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdul Rahim Khan-i-Khanan. Baburnama (forscha tarjima). — XVI asr oxiri.
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Darslik. — Toshkent: Bookmany print, 2025. — 350 b.
3. Abjalova M., Iskandarov O., Erkinov F. O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik morfologik tahlil qilishda lemmatizatsiya va stemming jarayoni // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. — Toshkent, 2024. — B. 6–21.
4. Arat, Reşit Rahmeti. 1987. Vekayi: Babür’ün Hatıratı. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
5. Beveridge, Annette Susannah. Notes on the Manuscripts of the Babur-nama (Turki). — Journal of the Royal Asiatic Society, 1900–1909.
6. Beveridge, Annette Susannah (ed.). The Babur-nama. Facsimile of the Turki Text. — London: Gibb Memorial Trust, 1905.
7. Bobur Z.M. Boburnoma / nashrga tayyorl. S. Hasanov, O. Jo‘raboyev; mas’ul muharrir J. Eshonqulov. — Toshkent: O‘zFA “Fan”, 2018.
8. Leyden, John; Erskine, William. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber. — London, 1826.
9. Thackston, Wheeler M. Baburnama: Memoirs of Babur. — New York–Oxford: Oxford University Press, 1996; revised edition, 2002.
10. Xolmanova Z. “Boburnoma” — til qomusi. — Toshkent: Akademnashr, 2021. — 326 b.
11. Xolmanova Z., Hayitov Sh., Muhammadiyeva. Bobur asarlari lug‘ati. — Toshkent, 2025. — 496 b.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur. The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). Translated from the original Turki text by Annette Susannah Beveridge. — London: Luzac & Co., 1922.